

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
4-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN OTORINOLARINGOLOGIYA VA  
BOSH-BO'YIN KASALLIKLARI ILMIIY – AMALIIY TIBBIIYOT MARKAZI**

**«O'TKIR SINUSIT»  
NOZOLOGIYASI BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOL**

**TOSHKENT – 2025**

**"TASDIQLANGAN"**

Respublika ixtisoslashtirilgan  
otorinolaringologiya va bosh-bo'yin  
kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi  
direktori Xasanov U.S.  
2025 yil



**«O'TKIR SINUSIT» NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY  
KLINIK PROTOKOL**

## Mundarija:

1. «O‘tkir sinusit» nozologiyasi bo‘yicha milliy klinik protokol .....5
2. «O‘tkir sinusit» nozologiyasi bo‘yicha tibbiy aralashuv milliy klinik protokoli ..... 34
3. «O‘tkir sinusit» nozologiyasi bo‘yicha tibbiy profilaktika va reabilitasiya milliy klinik protokoli .....41

Protokol nomi:

**1. Kirish qismi**

**1) Xalqaro kasalliklar klassifikatori – HKK(MKB)-10 va 11 shifri:**

XKK (MKB)-10	
Kodi: J-01	O'tkir sinusit
	<a href="https://www.rlsnet.ru/mkb/ostriy-sinusit-219">https://www.rlsnet.ru/mkb/ostriy-sinusit-219</a>
CA01	O'tkir sinusit
	<a href="https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#509821856">https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#509821856</a>

**Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi:** 2025, qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 y., yoki asosli dalillar paydo bo'lishiga ko'ra. Taqdim etilgan tavsiyalarga barcha tuzatishlar tegishli xujjatlarda e'lon qilinadi.

**Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot:** O'zbekiston otorinolariningologiya va Bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, O'zbekiston otorinolariningologiya, bosh va bo'yin jarrohligi assosiasiyasi.

**Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishda xissa qo'shganlar:** Otorinolariningologiya yo'nalishi, jarayonni tashkillashtirish bo'yicha ishchi guruh a'zolari:

1. Xasanov U.S. TTA Otorinolariningologiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor;
2. Ergashev U.M. TTA Otorinolariningologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.,
3. Amonov Sh. ToshPTI Otorinolariningologiya kafedrası mudiri, t.f.d, professor;
4. Arifov S.S. ToshIUV Otorinolariningologiya kafedrası mudiri, t.f.d, professor;
5. Botirov A.J. TMA Otorinolariningologiya kafedrası assistenti, t.f.n;
6. Shaumarov A.Z. t.f.n, TMA Otorinolariningologiya kafedrası katta o'qituvchisi;
7. Jumanov D.A. TMA Otorinolariningologiya kafedrası assistenti, t.f.n;
8. Jabborov N.N. TMA Otorinolariningologiya kafedrası assistenti;
9. Abdullaev U.P. TTA Otorinolariningologiya kafedrası assistenti.

**Asosiy va qo'shimcha mualliflar ro'yxati (Ismi-sharifi, ish joyi, unvoni, mansabi);**

1. Xasanov U.S. TTA Otorinolariningologiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor;
2. Ergashev U.M. TTA Otorinolariningologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.;
3. Shaumarov A.Z. t.f.n, TMA Otorinolariningologiya kafedrası katta o'qituvchisi;
4. Shodmonov Sh.A., RIOvaBBKIATM, oliy toifali vrach otorinolariningolog;
5. Djangirov T.G., RIOvaBBKIATM, birinchi toifali vrach otorinolariningolog;
6. Xusnutdinov R.A., RIOvaBBKIATM, vrach otorinolariningolog;
7. Urinov T.Sh., RIOvaBBKIATM, vrach otorinolariningolog.

**Taqrizchilar:**

Tashqi: Qozog‘iston Respublikasi otorinolaringologlar uyushmasi Bosh kotibi, Otorinolaringologiya markazi rahbari, Qozog‘iston Respublikasi bosh mustaqil otorinolaringologi, MD, professor G. A. Muxamadiyeva.

Ichki: Shamsiev D.F. TDSI Otorinolaringologiya kafedrasini mudiri, MD, professor;

- Multidissiplinar ishchi guruh yig‘ilishida Milliy klinik protokollarni loyihalasini muhokamasi bayonnomasidan ko‘chirmaning raqami va sanasi: O‘zbekiston otorinolaringologiya, bosh va bo‘yin jarrohligi assosiasiyasi, bayonnomasi №2, \_\_\_\_\_yil;

**Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va taxrirlash:**

1. LOR mutaxassisligi bo‘yicha O‘z SSV bosh eksperti t.f.d. Ashurov A.M.;

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

**Protokolda qo‘llanilgan qisqartmalar**

O‘S	O‘tkir sinusit
BYoB	Burun yondosh bo‘shliqlari
O‘RI	O‘tkir respirator infeksiya
YuNYI	Yuqori nafas yo‘llari infeksiyasi
UTT	Ultratovush tekshiruvi
KT	Kompyuter tomografiyasi
ABP	Antibakterial preparatlar
EPOS	2012; 2020 – Rinosinusit va burun poliplari bo‘yicha Yevropa tavsiya qilgan hujjat 2012; 2020
FESS	Burun va burun yondosh bo‘shliqlarining funksional endoskopik xirurgiyasi.

7) Mazkur nozologiya bo'yicha Milliy klinik protokol va standartlarning foydalanuvchilari – umumiy amaliyot shifokorlari, otorinolariningologlar;

8) Mazkur nozologiya bo'yicha milliy klinik protokol va standartlarga to'g'ri keladigan bemorlar toifasi - kattalar;

9) Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi

A	Yuqori sifatli meta-tahlil, Rectlarni tizimli ko'rib chiqish yoki tizimli xato ehtimoli (++) juda past bo'lgan katta RKT, natijalari tegishli aholiga yetkazilishi mumkin.
B	Kogort yoki keys-kontrol tadqiqotlarini yuqori sifatli (++) tizimli ko'rib chiqish yoki sistematik xato xavfi juda past bo'lgan yuqori sifatli (++) kogort yoki keys-kontrol tadqiqotlari yoki past (+) tizimli xato xavfi bo'lgan RKTlar, natijalari quyidagicha kengaytirilishi mumkin.
S	Kogort yoki keys-kontrol tadqiqoti yoki tizimli xato xavfi past bo'lgan randomizatsiyasiz boshqariladigan sinov (+). Natijalari tegishli populyatsiyaga yoki tizimli xato xavfi juda past yoki past bo'lgan RKTlarga (++) yoki (+) kengaytirilishi mumkin, natijalari to'g'ridan-to'g'ri tegishli populyatsiyaga yetkazilishi mumkin emas.
D	Bir qator ishlarning tavsifi yoki nazoratsiz tadqiqot yoki ekspert xulosasi.

## 2. Asosiy qism.

1) *Kirish;*

2) *Ta'rif;*

O'tkir sinusit (O'S) – ikki va undan ortik simptomlar bilan kechuvchi, <12 xaftagacha davom etishi mumkin bo'lgan, burun va burun yondosh bo'shliqlari shilliq qavatini o'tkir yallig'lanishi. Jumladan:

- burundan nafas olishni qiyinligi (burun bitishi);
- burun va burun xalqumda ajralma aniqlanishi;
- yuz soxasida bosim xissi; xid bilishni pasayishi yoki yo'qolishi;
- rinoskopik / endoskopik belgilar;
- burun yondosh bo'shliqlari kompyuter tomogrammasidagi o'zgarishlar;
- ostiomeatal kompleks va/yoki sinus ichi shilliq qavatidagi o'zgarishlar;

O'tkir sinusitni qaytalanuvchi shakliga aloxida ta'rif berish kerak. "Qaytalanuvchi o'tkir sinusit" tashxisining asosiy mezoni o'tgan yil davomida 4 yoki undan ortiq O'S kasallik tarixining mavjudligi, kasallanish orasidagi davrlar (kasallik belgilari bo'lmasa va davolash amalga oshirilmasa) kamida 8 hafta davom etgan bo'lishi kerak [3]. O'S yuqumli etiologiyaga ega bo'lishi mumkin: virusli, bakteriyali yoki zambrug'li, shuningdek allergenlar va ekologik omillar xam sabab bo'lishi mumkin. O'S 2-10% hollarda bakterial etiologiyaga ega, 90-98% hollarda esa viruslar sabab bo'ladi. Yuqori nafas yo'llarining virusli infeksiyasidan (YuNYVI) keyin burun yondosh bo'shliqlarining ikkilamchi

bakterial infeksiyasi kattalarning 0,5-2%i va bolalarning esa 5% da rivojlanadi. Ko'pincha O'S o'tkir respiratorli infeksiya (O'RI) fonida rivojlanadi. Deyarli xar qanday O'RI da burun yondosh bo'shliqlari shilliq qavati u yoki bu darajada ishtirok etadi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'ylab virusli infeksiyalar sonining kamayishi tendensiyasi mavjud emas. Kattalar va bolalarda o'tkir cinusitni keltirib chiqaradigan eng keng tarqalgan viruslardan: rinoviruslar, gripp va paragrip viruslari, respirator sinsitial, adenoviruslar (ko'pincha bolalarda O'S va adenoiditni keltirib chiqaradi), koronaviruslar, boka viruslar, metapnevoviruslar va boshqalar. Bakterial O'S patogenlarining spektri nisbatan doimiy bo'lib qoladi. Aksariyat xolda BYoB lari punksiya qilib olingan patologik namunada Streptococcus pneumoniae, Haemophilus influenzae aniqlanadi (70-75%). O'S paytida BYoBlari tarkibidan A guruhi streptokokklari, Moraxella satarrhalis, shuningdek majburiy anaerob mikroorganizmlar uchrashi mumkin. 15-20% hollarda M.satarrhalis bolalarda o'tkir bakterial rinosinusitning qo'zg'atuvchisi bo'lib, bunda O'S yengilroq ba'zan esa o'z o'zidan yaxshi bo'ladi. Xozirgi vaqtda ta'sirlangan sinuslarning mikrobial landshaftining tuzilishida stafilokokklar (xususan, S.aureus) rolini oshirish tendensiyasi mavjud. Bundan tashqari, allergik yallig'lanish jarayoni fonida stafilokokk infeksiyasi shilliq qavatga mahkam o'rnashib olib, unda uzoq vaqt qolishga qodirdir. O'tkir sinusitning patogenezi sekresiyalarning turg'unligi va BYoB larda havo almashinuvining buzilishi bilan bog'liqdir, buning natijasida mukosilier klirens mexanizmi kelib chiqadi va shilliq qavatning patogen bakteriyalar tomonidan kolonizatsiyasi sodir bo'ladi. O'tkir yallig'lanish holatida, BYoB larining shilliq qavati 20-100 marta qalinlashib, yostiqsimon xosilaga o'xshash shaklda namoyon bo'ladi. Mikroorganizmlarning patogen ta'sir qilishi natijasida shishgan shilliq qavat BYB lari normada 1-3 mm bo'lgan tabiiy yo'llarini berkitib qo'yadi, shu bilan birga, sinuslarni o'z-o'zini tozalash mexanizmi buziladi, xamda gaz almashinuvi (kislorodning so'rilishi) xam buziladi, gipoksiya va to'qima atsidozi rivojlanadi. Kuchli shish, sekresiyaning turg'unligi sharoitida o'ziga xos bo'lmagan qarshilik omillarining faolligi pasayadi, bo'shliqlarda kislorodning qisman bosimi pasayadi va faol bakterial infeksiyaning rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar xosil bo'ladi.

BYoB lardagi kislorodning parsial bosimining pasayishi yallig'lanishning kuchayishi xisobiga yuzaga kelib, bu jarayonning geneziyasida dominant rol ya'ni, metabolizmning fakultativ anaerob turi (pnevmonokokk, gemofil tayoqchasi va boshqalar) muxim o'rin tutadi. [30,32].

### **3) Klassifikatsiya (etiologiya va darajasiga ko'ra).**

#### **I. Etiologik faktorga ko'ra:**

- Travmatik;
- Virusli;
- Bakteriyali;
- Zambrug'li (superinfeksiya);
- Aralash;
- Allergik;

- Septik va aseptik.

Etiologiyasida faqat bakteriyalar rol o'ynaydigan O'C kam uchraydi (immunitet tanqisligi bo'lgan bemorlarda, shuningdek, burun shilliq qavatiga va BYBga fizik yoki kimyoviy agressiv ta'sir ko'rsatadi). Odatda, jarayon virusli-virusli va virusli-bakterial birlashmalar turiga qarab davom etadi.

II. Joylashuviga ko'ra:

- Yuqori jag' bo'shlig'i (gaymorit) – shilliq qavatini yallig'lanishi;
- Peshona bo'shlig'i (frontit) – shilliq qavatini yallig'lanishi;
- Etmoidal bo'shliq (etmoidit) – shilliq qavatini yallig'lanishi;
- Asosiy bo'shliq (sfenoidit) – shilliq qavatini yallig'lanishi;

Yallig'lanish jarayoni BYoB larining teng yarmida kuzatiladigan bo'lsa **gemisinusit**, yallig'lanish jarayoni BYoB larining barchasida kuzatiladigan bo'lsa **pansinusit** deb ataladi.

III. Shakliga ko'ra:

1) Ekssudativ shakli:

Seroz; Kataral; Yiringli.

2) Produktiv shakli:

Devor oldi-giperplastik; Polipozli.

IV. Sinusitlarning og'irlik darajasiga ko'ra:

Yengil, o'rta va og'ir.

O'S og'ir kechishiga ko'ra asosiy mezoni asoratlarning mavjudligi, O'S bemor xayot sifatiga ta'siri, shuningdek isitma va bosh og'rig'ini mavjudligidir (1 jadval).

**1 Jadval. O'tkir sinusitning og'irlik darajasi**

Og'irlik darajasi	Simptomlari:
<b>Yengil</b>	<p>Isitmaning yo'qligi.</p> <p>Bemorning hayot sifatiga ta'sir qilmaydigan (uyqu, kunduzgi faollik, kundalik faoliyat) yoki bemorning hayot sifatiga ozgina ta'sir qiladigan rinosinusitning o'rtacha belgilari (burun bitishi, burun oqishi, yo'tal)</p> <p>Paranasal sinuslarning proeksiyasida bosh og'rig'ining yo'qligi. Asoratlar yo'qligi.</p>

<p><b>O‘rta</b></p>	<p>38,0°S dan yuqori bo‘lmagan isitma.  Rinosinusitning aniq bo‘lgan (burun bitishi, burun oqishi, yo‘tal) belgilari yoki bemorning hayot sifatiga sezilarli ta’sir qiladigan (uyqu, kunduzgi faollik, kundalik faoliyat) o‘rtacha belgilari  Boshni qimirlatganda yoki egkanda burun atrofi bo‘shliqlarida og‘irlik xissi.  O‘rta quloqdan asoratlarning mavjudligi (o‘tkir o‘rta otit) miya ichi yoki orbital asoratlarning yo‘qligi.</p>
<p><b>Og‘ir</b></p>	<p>38,0°S dan yuqori isitma  Rinosinusitning aniq bo‘lgan og‘ir yoki og‘riqli (burun bitishi, burun oqishi, yo‘tal) belgilari yoki bemorning hayot sifatiga sezilarli ta’sir qiladigan (uyqu, kunduzgi faollik, kundalik faoliyat) belgilari.  Burun atrofi bo‘shliqlarida davriy yoki doimiy og‘riq yoki boshni qimirlatganda, egkanda yoki burun atrofi bo‘shliqlari perkussiyasida og‘riqni kuchayishi.  Miya ichi yoki orbital asoratlarning mavjudligi.</p>

### 3. O‘tkir sinusit diagnostikasi

O‘tkir sinusit tashxisi anamnezni tahlil qilish, klinik simptomlarning tabiati va bemorni rentgen tekshiruv natijalari asosida belgilanadi.

Kattalar uchun O‘S xolati tashxislash mezonlari:

Kasallik o‘tkir boshlanadi, bemorda kasallik 2 yoki undan ortiq alomatlar mavjudligi bilan birga keladi, ulardan biri burun bitishi yoki burun oqishi (shu jumladan postnazal sindrom) va yuzdagi paranasal sinuslarning proeksiyasidagi 12 haftadan ko‘p bo‘lmagan davomli og‘riq yoki bosim bo‘ladi.

#### 3.1. *Shikoyati*

- Burun bitishi
- Burun oqishi(ajralma)
- yuzdagi burun atrofi sinuslarning proeksiyasida bosim va og‘riq
- 12 haftadan ko‘p bo‘lmagan hid sezishni yo‘qotilishi yoki kamayishi.
- 12 haftadan ko‘p bo‘lmagan yo‘tal

#### 3.2. *Anamnez*

Kasallik o‘tkir boshlanadi, bemorda kasallik 2 yoki undan ortiq alomatlar mavjudligi bilan birga keladi, ular orasida burun bitishi, burun oqishi (shu jumladan postnazal sindrom) va 12 haftadan ko‘p davom etmaydigan yo‘tal.

#### 3.3. *Klinik simptomlar*

- osteomeatal kompleks soxasi shilliq qavati shishi
- osteomeatal kompleks soxasida yiringli ajralma

### **3.4. Asosiy va qo‘shimcha diagnostika choralari ro‘yxati:**

#### **3.4.1. Ambulatoriya darajasi**

- umumiy ko‘rik

- rinoskopiya,

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

- Umumiy kengaytirilgan qon taxlili

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Leykotsit miqdori patogen mikroflora darajasini baholashga yordam beradi.*

- rinoendoskopiya

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Qattiq va moslashuvchan endoskoplarning zamonaviy turlari burun bo‘shlig‘ini, sinuslarni va nazofarenksni batafsilroq tekshirishga imkon beradi. Ammo, aksariyat hollarda, O‘S endoskopik tekshiruvi oldingi rinoskopiya nisbatan yuqori darajadagi ma‘lumot tarkibiga ega emas.*

- radiologik tekshiruvlar (rentgenografiya yoki 3D rentgenografiya)

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Odatda, BYoB larining qalinlashgan shilliq qavatini aniqlash, suyuqlikning gorizontol darajasi yoki sinus pnevmatizatsiyasining umumiy pasayishi sinusitning belgisi hisoblanadi. Biroq, ba‘zi hollarda, rentgenografiyani talqin qilish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, atrofdagi suyak tuzilmalari yoki bo‘shliqlar gipoplaziyasida. Bemorni to‘g‘ri joylashtirish va optimal tekshiruv rejimiga rioya qilish juda muhimdir. Sifatsiz rentgenografiya ko‘pincha diagnostik xatolarga olib keladi. Rentgenografiya va KT ma‘lumotlari faqat 34% hollarda to‘g‘ri keladi, yuqori jag‘ bo‘shlig‘i uchun bu ko‘rsatkich 77%.*

#### **3.4.2. Statsionar daraja**

- Umumiy ko‘rik

- rinoskopiya

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

- Umumiy kengaytirilgan qon taxlili

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Leykotsitoz darajasi patogen bakterial mikroflorani jarayonga jalb qilish ehtimolini baholashga imkonini beradi.*

**- rinoendoskopiya**

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Qattiq va moslashuvchan endoskoplarning zamonaviy turlari burun bo'shlig'ini, sinuslarni va nazofarenksni batafsilroq tekshirishga imkon beradi. Ammo, aksariyat hollarda, O'S endoskopik tekshiruvi oldingi rinoskopiya nisbatan yuqori darajadagi ma'lumot tarkibiga ega bo'lmaydi.*

**- MSKT (burun yondosh bo'shliqlari)**

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *KT eng informatsion usul bo'lib, burun atrofi bo'shliqlar tadqiqotining "oltin standarti" ga aylanmoqda. KT nafaqat patologik o'zgarishlarning tabiati va tarqalishini aniqlashga imkon beradi, balki burun bo'shlig'i va burun atrofi bo'shliqlari anatomik tuzilishining individual xususiyatlarini ochib beradi. KT an'anaviy burun atrofi bo'shliqlar rentgenografiyasi bilan farqlanib bo'lmaydigan tuzilmalarni tasavvur qilish imkonini beradi.*

**- mikrobiologik tadqiqot o'tkazish**

Samarali davo maqsadida o'rta va og'ir darajada kechuvchi O'S bilan og'irgan bemorlarda shuningdek antibakterial terapiya samarasiz bo'lgan uzoq muddat davom etuvchi O'S larda yiringli ajralmadan aerob va fakultativ anaerob mikroorganizmlarni aniqlashda foydalaniladi.

**Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** *Material yig'ish, tashish va inkubatsiya qilishning barcha shartlariga rioya qilgan holda bakteriologik tadqiqotning sezgirligi va o'ziga xosligi 100% ga yaqin deb taxmin qilinadi.*

*O'tkir yiringli yuqori jag' sinusiti bilan og'irgan bemorlarda sinusdan patologik materialni yig'ish smeril Kulikovskiy ignasi bilan teshish orqali amalga oshiriladi.*

Ignani o'rnatish paytida uning o'tkir uchi burun shilliq qavatining biron bir joyiga tegmasligiga e'tibor berish kerak. Punksiyadan keyin bo'shliqdagi ajralma tortib olinadi. Patologik ajralma bo'lmasa, steril 0,9% natriy xlorid eritmasi yuborilib qayta ajralma tortib olinadi. Shundan so'ng aseptika qoidalariga muvofiq, tashuvchi ozuqa muhiti bilan sinov naychasiga kiritiladi va bakteriologik laboratoriyaga yetkaziladi. Tashuvchi ozuqa muhiti tarkibidagi ozuqa vositalarini etiologik ahamiyatga ega mikroorganizmlarning biologik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bakteriologik laboratoriyaga patologik materialni yetkazib berish uchun maqbul vaqt 40 minut. Patologik material keyingi molekulyar genetik tadqiqotlar, shuningdek, mass-spektrometrik tadqiqotlar uchun maxsus transport ozuqa vositalaridan foydalanishni hojati yo'q. Molekulyar genetik tadqiqotlar uchun material eppendorf tipidagi probirkalarda laboratoriyaga yetkaziladi. Shu bilan bir vaqtda, o'zida protolitik ferment saqlovchiga alohida e'tibor berish ta'lab etiladi. Bakteriologik tekshirish uchun burun yo'lidan (xususan, burunning o'rta qismidan) patologik materialni olish maqsadga muvofiq emas chunki bu vaqtda tekshirish uchun olinayotgan namunaga qo'shimcha mikrofloralar tushish extimoli mavjud.

Natijalarni talqin qilishda bir qator muammolar yuzaga keladi, birinchi navbatda, asosan sinusitlarni aksariyat xolda sinusitlarni dastlabki bosqichiga viruslar sabab bo‘ladi.

Shu munosabat bilan, ekish paytida patogen mikrofloraning o‘smasligini materialni yig‘ish, tashish va yetishtirishdagi nuqsonlar bilan ham, kasallikning virusli (yoki boshqa) etiologiyasi bilan ham izohlash mumkin.

Bakteriologik tekshirish ba’zida noto‘g‘ri salbiy natija beradi, bu bo‘shliqlarda patologik substratning avtosterilizatsiyasi hodisasi bilan izohlanadi.

### 3.5. Differensial diagnostika

Bolalardagi O‘S larni surunkali rinosinusit, allergik rinit, adenoidit va burun bo‘shlig‘idagi yot jismning mavjudligidan farqlash talab qilinadi. (2 jadval).

**2 jadval.** Bolalarda O‘S differensial diagnostikasi

Nozologiya	Umumiy belgilar	Farq / differensial diagnostika mezonlari
<b>Surunkali rinosinusit</b>	Surunkali rinosinusit va uning o‘tkirlashuvi klinik ko‘rinishlarda bir xil.	<p>Burun belgilari 12 hafta ichida, hatto davom etayotgan terapiya fonida ham to‘liq yo‘qolmaydi: bemorlar yaxshilanishni qayd etadilar, ammo pediatriya amaliyotida simptomlarning to‘liq yo‘qolmasligi, O‘S juda kam uchraydi.</p> <p>Surunkali rinosinusitning etiologiyasida yuqumli bo‘lmagan omillar (genetik anomaliyalar, allergiya, burun bo‘shlig‘i tuzilishining anomaliyalari va boshqalar) ustunlik qiladi.</p>

<p><b>Allergik rinit</b></p>	<p>O‘xshash burun belgilari (burun bitishi, burun oqishi, burun bitishi xisobiga yuzaga keladigan yo‘tal).</p> <p>Allergik rinit O‘S xavfni oshiradi.</p>	<p>Allergik rinit klinik belgilar takrorlanish bilan tavsiflanadi.</p> <p>O‘S ga qaraganda bemorlar sezilarli darajada tez-tez burun qichishiga va allergik aksirishga (ayniqsa pollinoz bilan) ko‘z simptomi (ko‘zlarning qichishi, yoshlanishi) bilan tavsiflanadi.</p> <p>Allergik rinitning patogenezi Ig E- bilan bog‘liq shilliq qavatning yallig‘lanishiga asoslangan.</p> <p>Allergik rinit tashxisi allergologik testlar natijalariga ko‘ra allergolog tomonidan belgilanadi.</p>
<p><b>Adenoidit</b></p>	<p>O‘xshash burun belgilari (burun bitishi, postnazal burun bitishi xisobiga yuzaga keladigan yo‘tal, adenoiditda burun oqishi kam uchraydi). 10-12 yoshgacha bo‘lgan bolalarda burun bo‘shlig‘i va BYoB larida yallig‘lanish o‘zgarishlari doimo faringeal shuningdek, burun xalqum murtagini reaktiv yallig‘lanishi (adenoidit) bilan birga keladi.</p>	<p>Adenotomiya qilinmagan 10-12 yoshdan kichik yoshdagi bolalar shikoyatida o‘tkir tumov va adenoidit o‘rtasidagi chegara shartlidir.</p> <p>Ba‘zi hollarda differensial diagnostika burun bo‘shlig‘i va burun xalqumning endoskopik tekshiruvi asosida aniqlanadigan burun o‘rta yo‘li va burun xalqumda sezilmas darajadagi shilliq, nazofarenkda uning oz miqdori bilan o‘rta burun yo‘lida sekresiya to‘planishini bu ko‘proq O‘S uchun xosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intrakranial va orbital asoratlar belgilari bo‘lmasa, shuningdek, o‘tkir bakterial sinusit diagnostikasi mezonlari bo‘lmasa, asosiy tashxis sifatida "adenoidit" yoki "o‘tkir nazofaringit" ni belgilash maqsadga muvofiqdir.</p>

<p><b>Burun bo'shlig'i yot jismi</b></p>	<p>Yot jism. (ayniqsa, organik moddalardan) bo'lsa, bolaning ota-onasi o'tkir burun bitishi va/yoki burundan yiringli ajralmaga shikoyat qilishi mumkin</p>	<p>Differensial tashxis bilan bog'liq muammo faqat bola har qanday organik moddalarni begona jism sifatida burniga solganda paydo bo'ladi (oziq-ovqat bo'laklari, o'simlik urug'lari, qog'oz bo'laklari yoki ko'pikli kauchuk) va bu ota-onalarga sezilmaydi. O'S ning aksariyat epizodlaridan farqli o'laroq, burun bo'shlig'ida begona jism topilganda, yallig'lanish o'zgarishlari faqat bir tomonda qayd etiladi (burunning ikkala yarmida begona jism kamdan-kam uchraydigan hodisa), yiringli ajralma o'tkir respiratorli infeksiyalarning oldingi epizodisiz to'liq salomatlik fonida sodir bo'ladi, oldingi rinoskopiya bo'yicha begona jism tashxis qilinadi (anemizatsiyadan keyin va burun bo'shlig'ining aspiratsion tozalashdan keyin), ba'zi hollarda burun bo'shlig'i va burun xalqumning endoskopik tekshiruvi o'tkaziladi (ta'sirchan bolalarda burun bo'shlig'i va burun xalqumning orqa qismlarini to'liq tekshirish uchun ko'pincha umumiy behushlik (narkoz) ostida o'tkaziladi).</p>
--	---	--

#### 4. Ambulator sharoitda davolash taktikasi:

##### 4.1. Dorilar bilan davolash

Agar ko'rsatma bo'lsa, o'tkir sinusit bilan og'rikan kattalarga tizimli antibakterial terapiyani buyurish tavsiya etiladi.

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi A (dalillarning ishonchlilik darajasi 1).**

**Izoh:** Antibiotik terapiyasi o'tkir sinusitning o'rta, og'ir shakli uchun tavsiya etiladi. Yengil shaklda antibiotiklar faqat yuqori nafas yo'llarining takroriy infeksiyasi va  $\geq 5-7$  kunlik klinik alomatlar bo'lgan holatlarida tavsiya etiladi. Shuningdek,

*antibiotik terapiyasi og'ir komorbid somatik patologiyasi bo'lgan bemorlarda (diabet va boshqalar) va immunitet buzilgan bemorlarda tavsiya etiladi.*

Oddiy klinik amaliyotda bakterial O'S tashxisini 100% aniqlik bilan qo'yish uchun hech qanday mezon yo'q. O'S muammosi bo'yicha so'nggi xalqaro kelishuv hujjatlarining ma'lumotlarini umumlashtirib, "o'tkir bakterial sinusit" tashxisining asosiy mezonlari sifatida ajratish mumkin:

- bemorlarda bir nechta alomatlar (3 yoki undan ko'p) mavjudligi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: burundan yiringli ajralma yoki 3 kun va undan ko'proq vaqt davomida har qanday xarakterdagi burunning faqat bir tomonidan ajralma kelishi; yuqori jag' yoki frontal bo'shliqlar sohasida bosh og'rig'i yoki yuz sohasidagi bosim hissi; isitma 38,0 °C va undan yuqori; ikkinchi kasallik to'liqini (vaqtinchalik yaxshilanishdan keyin O'S belgilarining kuchayishi) va klinik qon analizida leykotsitoz bo'lishi ( $15 \times 10^9/l$  dan ortiq);

- kasallikning boshlanish paytida 3-4 kun davom etadigan va yiringli-septik orbital jarayonlar yoki miya ichi asoratlarning rivojlanish xavfi va klinik belgilari mavjud bo'lgan og'ir alomatlar (isitma febril darajasida va undan yuqori; burundan yiringli ajralma; umumiy holatning sezilarli darajada buzilishi).

O'tkir bakterial sinusitni davolashning asosiy maqsadi patogenni yo'q qilishdir. Shu munosabat bilan, antibakterial preparatni buyurishda ustunlik tez bakteritsid ta'siriga ega bo'lgan dorilar berilishi kerak. Shu bilan birga, davolash samaradorligi mezonlari, birinchi navbatda, sinusitning asosiy belgilarining dinamikasi (yallig'langan sinus sohasida mahalliy og'riq yoki noqulaylik, burundan ajralma, tana harorati ko'tarilishi) va bemorning umumiy holatidir. Uch kun davomida sezilarli klinik o'zgarish bo'lmasa, davolash kursining tugashini kutmasdan, dori vositasini o'zgartirish kerak.

- pnevmokokklarning beta-laktamlarga chidamliligi uchun xavf omillari bo'lmagan taqdirda (oldingi 3 oy ichida antibiotiklardan foydalanish, oilada maktabgacha yoshdagi bolalar borligi, bolalar muassasalariga tashrif buyurish, "yopiq" muassasalarda yashovchi kattalar).

- pnevmokokklarning beta-laktamlarga chidamliligi uchun xavf omillari mavjud bo'lganda (oldingi 3 oy ichida antibiotiklardan foydalanish, oilada maktabgacha yoshdagi bolalar, bolalar muassasalariga tashrif buyurish, "yopiq" muassasalarda yashovchi kattalar).

- beta-laktamaza ishlab chiqaruvchi patogen shtammining mavjudligi uchun xavf omillari (H. Influenzae, S. aureus, M. catarrhalis), qo'shimcha kasalliklarning mavjudligi (bronxial astma, qandli diabet, surunkali bronxit), immunosupressiv holatlar, 65 yoshdan oshgan; amoksitsillin bilan muvaffaqiyatsiz oldin davolangan.

Bundan tashqari, zamonaviy makrolidlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, makrolidlar beta - laktam intoleransining IgE vositachiligidagi reaksiyalarida, ularning yetakchi patogenlarga nisbatan past mikrobiologik faolligi tufayli tanlashning muqobil dorilaridir: S. pneumoniae qarshiligining yuqori darajasi (30-40% dan yuqori) va H. influenzae ga nisbatan aniq faollikning yo'qligi. Shu bilan

birga, *S. pneumoniae* uchun 16 a'zoli makrolidlar 14 va 15 a'zoli dorilarga (70% dan kam) nisbatan yuqori sezuvchanlik darajasini (taxminan 85%) ko'rsatadi.

O'tkir yiringli sinusitda 2- va 3-avlod sefalosforinlarini og'iz orqali buyurish mumkin.

Ftorxinolonlar faqat kattalarda boshqa terapevtik alternativi bo'lmagan taqdirda ishlatilishi mumkin, bu esa ushbu dorilar guruhining noqulay xavfsizlik profiliga bog'liq. Ftorxinolonlar sinusitning og'ir kechishi holatlarida, burun bo'shlig'ining sitoarxitek-tonikasida doimiy o'zgarishlar mavjud bo'lganda, shuningdek polisinusit klinik shakllarida buyuriladi.

III-IV avlod ftorxinolonlarining muhim nojo'ya ta'siri ularning o'sayotgan biriktiruvchi va tog'ay to'qimalarga salbiy ta'siridir. Shuning uchun bu dorilarni bolalar va o'smirlarda qo'llash mumkin emas.

O'tkir rinosinusitning og'ir kechishida dori preparatlarni mushak ichiga va tomir ichiga yuborish yo'llari afzalroqdir, bunda 3-avlod sefalosforinlarni parenteral qo'llash tavsiya etiladi: Sefotaksim (ATX kodi: J01DD01) yoki Seftriakson (ATX kodi: J01DD04). Vena ichiga yuborish uchun Amoksitsillin+ [klavulan kislotasi] (ATX kodi: J01CR02) va 3-avlod sefalosporinlaridan (ATX kodi: J01DD) foydalanish mumkin. Anaerob infeksiya xavfi mavjud bo'lsa, Metronidazol (ATX kodi: J01XD01) yoki Klindamitsin (ATX kodi: J01FF01) 3-avlod sefalosporinlari (ATX kodi: J01DD) bilan birgalikda buyurilishi mumkin.

Tavsiya etilgan terapiya davomiyligi kattalarda - asoratlanmagan holatlarda 5-7 kun, asoratlangan holatlarda 10-14 kun.

Ilgari antibakterial dorilarni qabul qilgan yoki patogenning chidamli shakllari mavjudligini bo'lgan bemorlarda dozani 90 mg/kg gacha oshirish kerak.

O'tkir sinusit bilan og'irigan bolalar uchun tizimli antibiotik terapiyasini tayinlash tavsiya etiladi.

#### **Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi– 5)**

Organizmida preparatning barqaror va yuqori terapevtik konsentratsiyasini tezroq yaratish va saqlash mikroorganizmlarning antibiotiklarga chidamli shtammlari rivojlanishining oldini olishda muhim. Yuqori bio-kirishuvchan antibiotiklardan foydalanish nafaqat davolash samaradorligini oshiradi, balki antibiotiklarga chidamlilik xavfini va nojo'ya ta'sirlarning uchrashini kamaytiradi, bu ayniqsa bolalar amaliyotida juda muhimdir.

Birlamchi sinusitni davolashni keng va ta'sirli bo'lgan penitsillinlarning (aminopenitsillinlar) himoyalangan shakllari bilan boshlash tavsiya etiladi.

#### **Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi A (dalillarning ishonchlilik darajasi – 2)**

**Izoh:** *keng ta'sirli penitsillinlar (aminopenitsillinlar) otolaringologik organlarning o'tkir yiringli-yallig'lanish patologiyasini davolash uchun standart davolash dori vositasi hisoblanadi.*

Ko'p hollarda asosiy patogenlarning mahalliy qarshiligini hisobga olish kerak. Agar bemorda antibiotiklarga chidamliligi oshgan pnevmokokk shtammi bo'lsa, bolalarda kuniga 80-90 mg/kg va kattalarda kuniga 3 marta 1000 mg amoksitsillinning yuqori dozalarini (ATX kodi: J01CA04) qo'llash tavsiya etiladi. Shuni esda tutish

kerakki, H. influenzae, shuningdek M. catarrhalis va S. aureus b-laktamazalarning faol ishlab chiqaruvchilari bo'lib, ular birgalikda kasalliklar (bronxial astma, qandli diabet, surunkali bronxit), immunosupressiv holatlar, bemorning yoshi 65 yoshdan oshgan bo'lsa, shuningdek, amoksitsillin bilan muvaffaqiyatsiz antibiotik terapiya olgan bo'lsa, himoyalangan aminopenitsillinlarni boshlang'ich terapiya sifatida qo'llash kerak.

Agar ko'rsatmalar mavjud bo'lsa va qarshi ko'rsatmalar bo'lmasa, O'S bilan og'rikan bemorlarga mahalliy antibiotik terapiyasini buyurish tavsiya etiladi.

#### **Tavsiyalarining ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** mahalliy foydalanish uchun antibakterial preparatlar (shilliq qavat uchun) antibiotiklardan tizimli foydalanish bilan birgalikda, shuningdek monoterapiya sifatida yoki bakterial yallig'lanish, burundan ajralma kelishi belgilari bo'lgan yengil O'S bilan og'rikan bemorlarni davolashda yallig'lanishga qarshi dorilar va ekspektorant mukolitik dorilar bilan birgalikda buyurilishi mumkin. Mahalliy qo'llash uchun antibakterial dorilarni klinik ta'siri shifokor tomonidan terapiya boshlanganidan 3-4 kun o'tgach baholanishi kerak, agar ijobiy ta'sir bo'lmasa, tizimli antibakterial dorilarni qo'llash zarurligi masalasi ko'rib chiqiladi.

Yallig'lanish sababli burun yondosh bo'shliqlari shilliq qavatidan dori-darmonlarni qonga so'rilishi keskin kamayadi va mahalliy qo'llash bilan ularning yallig'lanish markazida konsentratsiyasi 100-120 baravar yuqori bo'ladi. Tizimli antibiotiklarning o'pkadagi yallig'lanish belgilariga qaraganda burundagi yallig'lanish belgilariga ta'siri sezilarli darajada past. Ko'pgina mualliflar asoratlanmagan holda yuqori nafas yo'llari infeksiyasiga qarshi kurashish uchun tizimli antibiotiklarni qo'llashda ba'zi cheklovlarni ta'kidlaydilar.

Mushak ichiga yoki tomir ichiga yuborish uchun mo'ljallangan antibiotik eritmalarini burun bo'shlig'iga va burun yondosh bo'shliqlariga yuborishni amaliyotidan chiqarib tashlash kerak. Farmakokinetikasiga ko'ra, ular ushbu maqsadlar uchun moslashtirilmagan va yuqori nafas yo'llarining shilliq qavatining kiprikli epiteliysiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Burun yondosh bo'shlig'i ichiga yuborish uchun tiamfenikol glitsinat asetilsisteinat preparatini qo'llanilishi mumkin (ATX kodi: J01BA02). Ushbu dozalash shakli rinosinusitni tizimli antibakterial dorilar bilan birgalikda yoki monoterapiya sifatida, ayniqsa bolalarda ingalyatsiya terapiyasida muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Burun bo'shlig'ining sanatsiyasini optimallashtirish uchun O'S bilan og'rikan bemorlarga eliminatsiya-irrigatsion terapiyasini buyurish tavsiya etiladi.

#### **Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi – 1)**

**Izoh:** burun bo'shlig'ini izotonik steril dengiz suvi (ATX kodi: R01AX10) va viruslar va bakteriyalarni yo'q qilish uchun steril izotonik tuz eritmalariga asoslangan gigiena vositalari bilan yuvish kattalar va bolalarda o'tkir rinosinusitlarni davolashda ham mahalliy, ham xorijiy ko'rsatmalarda tavsiya etilgan.

Osmoz hodisalari tufayli burun bo'shlig'ini gipertonik eritmalar bilan yuvishda bo'shliqlarning tabiiy teshiklaridagi bosimni qisman kamaytirishi mumkin. Ushbu

maqsadlar uchun dengiz suvining past konsentratsiyali gipertonik steril eritmalaridan foydalanish mumkin (ATX kodi: R01AX10). Ammo shuni esda tutish kerakki, ushbu dorilarni faqat o'tkir davrda qo'llash kerak va davolashning maksimal davomiyligi foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq 5-7 kun.

Burun bitishiga qarshi dorilarning burun uchun mahalliy shakllarini tayinlash tavsiya etiladi - alfa adrenomimetiklar (R01A dekongestanlar va boshqa mahalliy ta'sir qiluvchi dorilar) O'S bilan og'rikan bemorlarda kasallik kechishini yengillashtiradi.

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi A (dalillarning ishonchlilik darajasi – 1)**

**Izoh:** ushbu dorilar guruhini tayinlash o'tkir sinusit uchun zarurdir, chunki bu dorilar burun shilliq qavatining shishishini eng qisqa vaqt ichida yo'q qiladi, ularning ba'zilari yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham ishlatilishi mumkin.

Ta'sir mexanizmiga ko'ra, barcha tomir toraytiruvchi dori vositalari alfa-adrenomimetik bo'lib, ular A1 yoki A2 retseptorlariga selektiv ta'sir ko'rsatishi yoki ikkalasiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nazafolin (ATX kodi: R01AA08) toksik ta'siri aniq va otorinologik amaliyotda qo'llash mumkin emas. Nazafolindan foydalanish bolalarda tomir toraytiruvchi vositalardan zaharlanishining asosiy sababidir. 0-6 yoshli bolalarda fenilefrin (ATX kodi: R01AB01) 0,125%, oksimetazolin (ATX kodi: R01AB07) 0,01-0,025%, ksilometazolin (ATX kodi: R01AB06) 0,05% (2 yoshdan) qo'llaniladi.

Tomir toraytiruvchi vositalar burun bitishi bo'lgan bemorlarni davolashda qo'llanilishi kerak, ammo qat'iy belgilangan tartibda va shifokor nazorati ostida. Medikamentoz rinitni rivojlanish xavfi tufayli ulardan foydalanish 5-7 kundan oshmasligi kerak. Fenilefringa asoslangan preparatlar 10-14 kungacha ishlatilishi mumkin.

Mahalliy yallig'lanishga qarshi ta'sirga erishish uchun 12 yoshdan oshgan O'S bilan og'rikan bemorlarga mahalliy glyukokortikosteroid terapiyasini buyurish tavsiya etiladi.

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi B (dalillarning ishonchlilik darajasi – 1)**

**Izoh:** glyukokortikosteroidlar 12 yoshdan oshgan bemorlarda uzoq muddatli (virusdan keyingi sinusit) monoterapiya sifatida yoki tizimli antibakterial dorilar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin. 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda glyukokortikosteroidlar mahalliy O'S monoterapiyasi sifatida faqat allergik rinit bilan og'rikan bemorlarga buyurilishi mumkin.

